

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SAYITQULOVA ZILOLA XUSNIDDIN QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY ASARLARIDA INSONLAR O‘RTASIDAGI  
MUNOSABATLARNING LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)  
in philological sciences**

**Sayitqulova Zilola Xusniddin qizi**

Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning  
lingvomadaniy va pragmatik tahlili ..... 3

**Сайиткулова Зилола Хусниддин қизи**

Лингвокультурологический и прагматический анализ человеческих  
взаимоотношений в английских и узбекских художественных  
произведениях ..... 29

**Sayitqulova Zilola Xusniddin qizi**

Linguocultural and pragmatic analysis of human interrelations in English and  
Uzbek literary works ..... 57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 61

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SAYITQULOVA ZILOLA XUSNIDDIN QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY ASARLARIDA INSONLAR O‘RTASIDAGI  
MUNOSABATLARNING LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2291 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shamaxmudova Aziza Furqatovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Saidov Hayrulla Shavkatovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil « 14 » may soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (998978) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (6189 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 29 » aprel kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 29 » aprel dagi № 13 raqamli reyestr bayonnomasi)



**T.A. Bushuy**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, ularning lingvomadaniy va pragmatik mohiyatiga daxldor jihatlarini aniqlash hamda ularni qiyosiy aspektda tadqiq etish orqali xalqlarga xos izomorfik va allomorfik xususiyatlarini belgilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada olam milliy madaniy manzarasini o'zida aks ettirgan badiiy asarlarning o'rni beqiyosdir. Xususan, badiiy asarlar ma'lum bir tarixiy davrda muayyan lisoniy jamiyatda inson hayoti va turmushini badiiy tasvirlash bilan bir qatorda, xalqning til zaxirasi, ong va tafakkur tarzini borligicha ifodalab, millatning turmush sharoiti, o'tmishi, lingvomadaniyati va milliy mentaliteti hamda insonlar o'rtasidagi munosabatlarni, ijtimoiylashuv jarayonlarini o'zida aks ettiradi. Tobora jadallashib borayotgan zamonda kelajakka teran nigoh bilan qaraydigan komil avlodni tarbiyalashda, madaniyatlararo farqlarni to'liq o'rganishda, xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam diplomatik aloqalar o'rnatishda insonlar o'rtasidagi munosabatlarning qiyosiy aspektdagi tadqiqi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida inson hayotining ma'nosi, insonning qadriyatlari, xususan, ma'naviy qadriyatlariga mos ravishda uning o'zaro munosabatlari va intilishlari xususidagi asosiy masalani qo'ygan holda asarning badiiy g'oyasini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Badiiy asarda qo'llanilgan lisoniy vositalarning pragmatik vazifalari, turli ma'no ifodalanishi hamda ingliz va o'zbek lisoniy madaniyati, umuminsoniy, ilmiy-ma'rifiy hamda ma'naviy-madaniy qadriyatlarini yoritish orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun tanlangan til vositalarini tahlil qilish zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizning umumjahon hamjamiyatiga integratsiyalashishi uchun milliy va xorijiy adabiyot namunalarining o'rganilishi, tarjima qilinishida muhim islohotlarni amalga oshirishga e'tibor kuchaymoqda. Qolaversa, badiiy asarlarni o'rganish, shubhasiz, inson shuurini kengaytiradi, o'quvchini ma'lum bir tarixiy davr, muayyan lisoniy jamiyatning turmush tarzi, insoniy qadriyatlari va milliy stereotiplari bilan tanishtiradi. Shu bois yangi O'zbekistonda badiiy adabiyot namunalarini o'rganishda ham yangicha ilmiy yondashuv va qarashlar shakllanmoqda. Bu esa, adabiyotshunos va tilshunos olimlar oldiga badiiy asarlarni zamonaviy adabiyotshunoslikning yangi yo'nalishlarining yutuqlari asosida, davr ijtimoiy-madaniy munosabatlari bilan bog'liq holatda o'rganish, ularni jahon tillariga tarjima qilish, o'zbek xalqi madaniyatini tarannum etgan asarlarni dunyo xalqlari o'rtasida keng targ'ib etish kabi muhim vazifalarni qo'yadi. Zero, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak"<sup>1</sup>. Shunday ekan, ma'naviy durdona bo'lmish badiiy asarlarni yanada chuqurroq o'rganish, ularni adabiyotshunoslikning yangi yo'nalishlari prizmasida tahlil qilish, ingliz va o'zbek

---

<sup>1</sup> Uzreport.news, "Shavkat Mirziyoyev Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrif buyurdi" ruknidan, 2020-yil, 5-may.

badiiy asarlarining o'ziga xosligini ochib berish orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlarning tasvirlanishida tilning lisoniy-madaniy xususiyatlarini aniqlash hayotiy zaruratga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF – 5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF – 5850-son “O'zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF – 60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ – 3775-son “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ – 5117-son “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Badiiy matnning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari, badiiy asarlarning g'oyaviy mazmunini shakllantiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarning namoyon bo'lish muammolari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, xorijiy olimlar orasidan mavzuga oid ishlar bilan D.Holland, N.Kuin, E.Sepir, P.Verdonk, T.A.Van Deyk<sup>2</sup>; rus olimlaridan N.D.Artyunova, G.G.Molchanova, V.A.Maslova, V.V.Vorobyev, T.V.Yevsyukova, A.ABaronin, Y.V.Kalambet, G.A.Bagautdinova, Y.V.Darofyev, O.S.Fedotova<sup>3</sup> va boshqalar shug'ullangan.

---

<sup>2</sup> Holland D., Quinn N. (ed). Cultural models in Language and Thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 400 p.; Sapir E. Selected writings in Language, Culture, and Personality. By David G. Mandelbaum (editor). – London: University of California Press, 2012. – 623 p.; Verdonk P. Stylistics. Oxford Introductions to Language Study Text. Series Editor H.G. Widdowson. – London: Oxford University Press, 2002. – 124 p.; Van Dijk T.A. Discourse Power and Access, in C.R. Caldas (ed) Studies in Critical Discourse Analysis. – London: Routledge Press, 1983. – 817 p.

<sup>3</sup> Артюнова Н.Д. Вступление // Логический анализ языка. Образ человека в культуре и языке / Отв. ред. Н.Д. Артюнова, И.Б. Левонтина. – М.: Индрик, 1999. – 422 с.; Молчанова Г.Г. Импликативные аспекты семантики художественного текста: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1990. – 48 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология: Монография. – М.: Изд-во РУДН, 2008. – 340 с.; Евсюкова Т.В., Бутенко Е.Ю. Лингвокультурология. – М.: Флинта, 2016. – 480 с.; Боронин А.А. Интерпретация персонажных субтекстов: основы теории (на материале художественной прозы): Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – М., 2008. – 45 с.; Каламбет Е.В. Проявления антропоцентризма в современной отечественной лексикографии: на материале лингвистических словарей: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 77 с.; Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Казань, 2007. – 46 с.; Дорофеев Ю.В. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики / Ю.В. Дорофеев //

O‘z ilmiy izlanishlarini badiiy matnlarning lingvomadaniy va pragmatik jihatlarini talqin qilishga bag‘ishlagan mahalliy olimlardan M.X.Hakimov, D.U.Ashurova, Sh.S.Safarov, F.F.Usmanov, E.A.Begmatov, N.M.Djusupov, D.U.Xoshimova<sup>4</sup> va boshqalarni aytib o‘tish lozim. D.Xudoyberganovanning doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi badiiy matnlar tilda inson omilini olg‘a suruvchi antroposentrik aspektda tahlil qilingan. S.Boymirzayeva tomonidan badiiy matnlarni shakllantiruvchi kommunikativ pragmatik kategoriyalar ishlab chiqilgan. R.Shirinova va M.Galiyeva badiiy asarlar tarjimalarida olam lisoniy manzarasining aks ettirilish jarayonlarini o‘rganganlar. N.Normurodovanning tadqiqot ishida ingliz badiiy diskursida antroposentrizmni ifodalovchi belgilar muallif va qahramon diskursiv shaxsi nuqtayi nazaridan tasniflangan. Turli tuzilmali tillardagi badiiy matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari Z.B.Xojiyeva tomonidan tadqiq etilgan<sup>5</sup>. Badiiy matn muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar mavjudligiga qaramay, badiiy asarlar matnining falsafiy g‘oyasini yetkazish usullari, milliy-madaniy qadriyatlarni aniqlanishdan kelib chiqqan holda insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlovchi lingvomadaniy, pragmatik va uslubiy vositalarning tadqiqi qiyosiy yondashuv asosida yetarlicha yoritilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “Diskursning kognitiv-pragmatik va sotsiolingvistik tadqiqi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o‘zbek badiiy asarlari misolida insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy, oilaviy, do‘stlik munosabatlarning lingvomadaniy va

---

Актуальные проблемы современной когнитивной лингвистики: Материалы. XV Междунар. Лингвистической конф. “Язык и мир”. Таврический национальный ун-т им. В.И. Вернадского. – Симферополь, 2008. – С. 214; Федотова О.С. Формий взаимодействия в треугольнике “автор – персонаж – читатель” // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2014. №5 (35): в 2-х ч. Ч. 1. – С. 176-179.

<sup>4</sup> Хакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан. д-ри. ...дисс. –Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2001. – 283 б.; Ashurova D.U. Linguocultural Aspect of Literary Text // Ҳозирги замон тилшунослигида когнитив, лингвомаданиятшунослик ва гендер тилшунослиги йўналишларига доир масалалар. Республика илмий-амалий конференцияси мақолалари тўплами. – Тошкент, 2013. – Б. 61-62; Сафаров Ш. Прагматингвистика. Монография. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – 318 б.; Усманов Ф.Ф.Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – 150 б.; Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси (адабий норманинг шаклланиши ва яшаш қонуниятлари). – Тошкент: ЎзР Фанлар Академияси Тилшунослик институти, 1999. – 140 б.; Джусупов Н.М. Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте: Автореф. дис...канд. филол. наук. – Т., 2006. – 54 с.; Xoshimova D.U. “Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi: Filol. fan. dok. ... (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 74 b.

<sup>5</sup> Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол.фан. д-ри. ...дисс. –Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2015. –240 б.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. докт.дисс....автореф. – Тошкент, 2010 – 49 б.; Shirinova R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: Filol. fanlari dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 78b.; Галиева М.Р. Отражение мифолого-религиозного сознания в языковой картине мира: Автореф. докт. дисс. (DSc) по филол. наукам. – Фергана, 2019. – 78 с.; Нормуродова Н.З. Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе: Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2020. –260 с.; Хожиева З.Б. Национально-культурная специфика художественного текста (на материале разнесистемных языков): Автореф. дисс. ... докт. философии по филол. наукам (PhD). – Фергана, 2020. – 59 с.

pragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan holda ularning allomorfik va izomorfik jihatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz va o'zbek badiiy asarlarida insonlar o'rtasidagi munosabatlarni chog'ishtirma tahlil qilish asosida ularning lisoniy-madaniy va milliy mentalitetga xos xususiyatlarini aniqlash;

milliy ong va milliy tafakkur bilan bevosita bog'liq bo'lgan etnomadaniy qadriyatlarning inson shaxsiyatini shakllantirishdagi o'rnini belgilash;

ingliz va o'zbek badiiy asarlarida insonlar o'rtasidagi munosabatlar aks etgan kontekstlarni tahlil qilish orqali ularda ishtirok etuvchi lisoniy birliklarning leksik va stilistik jihatlarini aniqlash, ularning pragmatik mazmunini belgilash hamda ekspressiv vositalarini ko'rsatib berish;

insonlar o'rtasidagi eng faol ijtimoiylashuv jarayonlarini o'zida aks ettiruvchi "oila" va "do'stlik" konseptiga oid leksemalar, frazeologizmlar, paremiyalarning ingliz va o'zbek tilidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, qiyoslanayotgan tillardagi badiiy asar matnlari orqali insonlarning mazkur konseptlarga bo'lgan munosabatini belgilash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi ingliz va o'zbek badiiy asarlari matnlaridan jumladan, "oila" va "do'stlik" konseptiga oid birliklar ishtirok etgan namunalar tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** ingliz va o'zbek badiiy asarlarida insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlovchi lingvomadaniy, lingvopragmatik, ekspressiv-stilistik vositalar tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda deskriptiv usul, komponent tahlil, qiyosiy-chog'ishtirma, kross-madaniy tahlil, etimologik tahlil hamda kontekstual-situativ tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek badiiy asarlarida insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlovchi so'z, ibora, maqol ko'rinishdagi lisoniy vositalarning semantik ma'no, milliy-madaniy stereotiplarga asoslangan lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy-chog'ishtirma jihatdan tahlil qilinib, qiyoslanayotgan tillarda ularning allomorfik va izomorfik jihatlarini aniqlangan;

insonlar o'rtasidagi ijtimoiy, oilaviy, do'stlik munosabatlarning shakllanishiga bilvosita ta'sir etuvchi milliy mafkura bilan bog'liq milliy-madaniy qadriyatlar insonlarning ijtimoiylashuv ehtiyoji tufayli yuzaga kelganligi hamda ularning jamoaviy ongdan individual ongga o'tishi orqali inson shaxsiyatining shakllanishida muhim o'rin tutishi dalillangan;

insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda tahlilga tortilgan kontekstlarning mazmuniy-struktur shakllanishida hayot masalalariga asoslangan falsafiy g'oya va kommunikativ aktlarda faollashgan pragmatik mazmunni yoritishda hamda uning ta'sirchanligini oshirishda qo'llanilgan lisoniy birliklarining semantik, pragmatik va ekspressiv-stilistik xususiyatlari yoritilgan;

insonlar o'rtasidagi munosabatlarning eng faol ijtimoiylashuv jarayonlarini o'zida aks ettirgan ingliz va o'zbek leksik, frazeologik, paremiologik qatlamlardagi "oila" va "do'stlik" konseptiga oid lisoniy birliklardagi o'xshashlik va farqlar

aniqlangan, “oila” va “do‘stlik” munosabatlarni ifodalagan mazkur konseptlar, asosan, tavsifiy xarakterdagi, shuningdek, shaxsning muayyan ruhiy holati va ichki dunyosi orqali ifodalangan matnlarda namoyon bo‘lishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarni yoritishga ko‘maklashadigan til birliklarining badiiy asarlar matnida faollashuvini ta‘minlovchi omillarni aniqlash muhimligi belgilangan;

insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish jarayonida aniqlangan ingliz va o‘zbek xalqiga xos etnomadaniy birliklar tadqiqi asosida to‘plangan materiallar antroposentrizmning yetakchi yo‘nalishlari hisoblangan lingvokulturologiya, pragmatik lingvistik hamda kognitiv lingvistik yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda amaliy jihatdan yordam bergan;

ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida aniqlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar tadqiqi shaxs ma‘naviyatini yuksak ruhda, tarixiy haqiqatdan ogoh etib zamonaviy madaniyatli avlodni tarbiyalashga hissa qo‘shuvchi yangi o‘quv adabiyotlarini yaratish uchun xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy yondashuvlar metodologik usullar, nazariy ma‘lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asosligi, ishda antroposentrik paradigmaning tadqiq usullaridan foydalanilganligi, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek badiiy asarlari vositasida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni milliy mentalitetga xos jihatdan tahlil qilish asosida etnomadaniy birliklar qo‘llanilishining lingvomadaniy xususiyatlariga oid fikr-mulohazalar bildirilganligi, olingan ilmiy xulosalar kelgusida qiyoslanayotgan tillardagi badiiy asarlarning milliy-madaniy va lisoniy xususiyatlarini lingvomadaniy aspektda yanada chuqurroq o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik”, “Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Badiiy matn tahlili”, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Qiyosiy tadqiqotlar metodologiyasi”, “Matn lingvistikasi”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kabi fanlar bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda; darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, izohli lug‘atlarni takomillashtirishda, tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha dissertatsiyalar va ilmiy maqolalar yozishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek badiiy asarlari vositasida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlovchi lisoniy vositalarning leksik, semantik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma jihatdan tahlil qilinib, qiyoslanayotgan tillarda ularning o‘xshash va farqli jihatlariga oid ilmiy-nazariy xulosalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 561624-EPP-1-2015-UK EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 28-yanvardagi 265/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalarning insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi birliklarning lisoniy xususiyatlari haqidagi olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan.

insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga bilvosita ta’sir o‘tkazuvchi milliy-madaniy qadriyatlar insonlarning ijtimoiylashuv ehtiyoji tufayli yuzaga kelganligi hamda ular umumiylikdan xususiylikka o‘tish tamoyili orqali inson shaxsiyatining shakllanishida muhim o‘rin tutishining dalillangan jihatlaridan, ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi til birliklarining ifodalanish darajasi ijtimoiy-madaniy, kommunikativ, milliy-me’yoriy mezonlar asosida talqin qilish yuzasidan bildirilgan xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800- 21GR-381 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti 2024-yil 16-sentabrdagi 04/2881-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar ingliz va o‘zbek madaniyatida shakllangan milliy madaniy qadriyatlarning insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga bo‘lgan ta’sirini tahlil qilish hamda loyiha doirasida lingvomadaniy aspektda virtual resurslar yaratish va joriy etish imkonini bergan.

insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashda tahlilga tortilgan kontekslarning mazmuniy-struktur shakllanishida, falsafiy g‘oyasi va pragmatik mazmunini yoritishda hamda uning ta’sirchanligini oshirishda qo‘llanilgan til birliklarining leksik, semantik, pragmatik va ekspressiv-stilistik xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024- yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 8-avgustdagi 1528/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida badiiy asarlarni talqin qilish qobiliyatini oshirish, pragmatik vositalarni chuqur o‘rganish orqali pragmatik yondashuvning hozirgi global davrdagi ahamiyatini aniqlashda xizmat qilgan.

insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning eng faol ijtimoiylashuv jarayonini o‘zida aks ettirgan oila va do‘stlik munosabatlarning ingliz va o‘zbek badiiy asarlari orqali dalillangan, qiyosiy tavsifi, mazkur munosabatlarning

umumiy va farqli jihatlari yuzasidan erishilgan natijalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2024-yil oktabr oyida efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand!” ko‘rsatuvini navbatdagi sonlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-oktabrdagi 01-07/278-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuv mazmun-mundariyasi ilmiy-ma’rifiy ahamiyatga ega qarashlar bilan boyitilgan, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta’minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, boblar bo‘yicha xulosalar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya asosiy hajmi 149 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqot materiali tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, aprobatsiya, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy adabiyotshunoslikda antroposentrizmning ahamiyati”** nomli birinchi bobida tilshunoslik faniga XX-XXI asrlarda kirib kelgan antroposentrik paradigmaning inson ongi, nazariy va amaliy faoliyati bilan bog‘liqligi haqidagi qarashlar, antroposentrik paradigmaning mohiyati hamda badiiy matnga antroposentrik yondashuvda muhim o‘rin tutuvchi diskurs va diskursiv shaxs atamaları hamda ularning badiiy matnda qo‘llanilishi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Bobning *“Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrizm hodisasi”* deb nomlangan birinchi faslida markazida inson omili turuvchi antroposentrik paradigma tilni uning sohibi bo‘lgan inson bilan birga tadqiq etishi haqida olimlarning o‘z asosini topgan turli qarashlari keltirilgan va ularga munosabat bildirilgan.

Tilshunoslikning yetakchi va zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan antroposentrizm til va shaxs munosabatlariga, uning manbasi bo‘lgan matn va uni yaratuvchi shaxsga, til materiallarining qanday amal qilinishiga, bugungi kundagi ahamiyatiga, unda ifodalanayotgan mazmunning davr bilan aloqasi kabi

masalalariga e'tibor qaratadi. Jahon tilshunosligida E.Sepir, T.A.Van Deyk, U.Cheyf, T.A.Orlova, O.I.Leshenko, B.A.Serebrennikova<sup>6</sup>, o'zbek tilshunosligida M.X.Hakimov, D.U.Ashurova, Sh.S.Safarov, N.Mahmudov<sup>7</sup> kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan.

Hozirgi zamon tilshunosligida antroposentrik paradigma fanlararolik, funksionalizm, ekspansionizm, semantikasentrizm, tekstosentrizm kabi bir qator metodologik asosga ega. Mazkur tadqiqotda biz antroposentrik paradigmani fanlararolik va tekstosentrizm tamoyili jihatidan ko'rib chiqamiz. Fanlararo bog'liqlik ikki yoki undan ortiq fanlarning o'zaro ta'sir doirasi oddiy fikr almashinuvidan tortib, to tushunchalar, metodologiya va tadqiqot usullarining o'zaro integratsiyalashuvigacha o'zgarishi mumkin bo'lgan tamoyildir<sup>8</sup>. Bunga lingvokulturologiyaning etnolingvistika, kulturologiya, sotsiolingvistika, mintaqashunoslik kabi fanlarning o'zaro ta'siriga asoslanganligi yorqin misol bo'la oladi. Fanlararo bog'liqlik antroposentrik paradigmaning zamonaviy, fundamental va uslubiy tamoyili sifatida qaralishi mumkin, bu esa tilni turli fanlar nuqtayi nazaridan o'rganishni taqazo etadi.

Ishimizning o'rganish obyekti badiiy matn ekanligini hisobga olgan holda, matndagi lingvistik birliklarni o'rganishga qaratilgan tekstosentrizm tushunchasi bizning tadqiqotda ko'proq qiziqish uyg'otadi. Badiiy matnning antroposentrikligi uning shaxs tomonidan yaratilganligi, tasvirlanuvchi asosiy subyekti shaxs ekanligi va shaxsga mo'ljallanganligida namoyon bo'ladi. Badiiy matnda to'liq tavsiflovchi vaziyatlar o'z aksini topadi, ularning o'zaro aloqalari ochib beriladi, ularga munosabat bildiriladi, baho beriladi va u o'zida umuminsoniy, milliy o'ziga xos individual va shaxsiy xususiyatlarning tajribasi va madaniyatini aks ettirish orqali obyektiv dunyoning subyektiv qiyofasini namoyon etadi<sup>9</sup>. Ayniqsa, badiiy matn ijtimoiy-madaniy va hayotiy qadriyatlar tizimining in'ikosi sifatida estetik qadriyatlar, hissiy baholovchi madaniy ma'lumotlarning tashuvchisi hisoblanadi.

Bobning "*Badiiy adabiyotda antroposentrizm dinamikasi*" deb nomlanuvchi ikkinchi faslida antroposentrik paradigmaning fandagi chuqur tarixiy ildizlari haqida so'z yuritiladi. Tilni antropologik asoslarda tadqiq etish g'oyasi

---

<sup>6</sup> Sapir E. Selected writings in Language, Culture, and Personality. By David G. Mandelbaum (editor). – London: University of California Press, 2012. – 623p.; Van Dijk T.A. (1993) Discourse Power and Access, in C.R. Caldas (ed) Studies in Critical Discourse Analysis. – London: Routledge Press. 1983. – 817 p.; Chafe W. Discourse, consciousness and time. – Chicago: Univ. Chicago of Press, 1994. – 311 p.; Орлова Т.А. Антропоцентрическая координата одорической дескрипции (на материале текста романа Патрика Зюскинда "Perfume: The Story of a Murderer") Высшее гуманитарное образование XXI века: проблемы перспективы: Материале седьмое международной научного - практической конференций. – Samara, 2012. – P. 237-240; Лещенко О.И. Антропоцентричность как универсальный принцип организации языковой картины мира. – М.: Философия, 2014. – С. 171-179; Серебренникова Б.А. Роль человеческого фактора в языке. Язык и мышление. – М.: Наука, 1998. – 244 с.

<sup>7</sup> Ҳақимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2001. – 283 б.; Ashurova D.U. Linguocultural Aspect of Literary Text // Ҳозирги зamon тилшунослигида когнитив, лингвомаданиятшунослик ва гендер тилшунослиги йўналишларига доир масалалар. Республика илмий-амалий конференцияси мақоалари тўплами. – Тошкент, 2013. – С. 61-62; Сафаров Ш. Тил назарияси ва лингвометодология. – Т.: Баёз, 2015. – 376 б.; Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари ни излаб 5-сон, // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 3-16.

<sup>8</sup> Ашурова Д.У. Междисциплинарность как основной принцип современной лингвистики // Хорижий филология. Илмий услубий журнал. – Самарканд, 2015, №3 (56). – С. 5-11.

<sup>9</sup> Ашурова Д.У. Синергетика художественного текста. // International scientific – methodological electronic journal. – "Foreign Languages in Uzbekistan", 2021, vol. 10. No 1 (54). – P. 39-59.

V.Gumboltga borib taqaladi. Uning fikriga ko‘ra “ ... tilning mohiyatini anglash, uni izohlash faqat ko‘p tomonlama asosga ega bo‘lgan inson faoliyati va u yaratgan dunyoda ko‘rish mumkin...”<sup>10</sup>. Sh.Safarov V.Gumboltning g‘oyalari Y.L.Vaysberger, E. Sepir, B.Uorf, A.A.Potebniya kabi olimlar tomonida davom ettirilganini qayd etadi<sup>11</sup>. Tadqiqot ishida mazkur olimlarning g‘oyalariga zamonaviy tilshunoslar tomonidan bildirilgan munosabatlar keltirilgan. E.Benvenist birinchilardan bo‘lib tilga tizimli tavsif berib adresant va adresat tushunchalarini zarur komponentlar sifatida kiritib, til va insonning uzviy bog‘liqligi<sup>12</sup> haqidagi tezesini ishlab chiqdi. Uning ishlarini tahlil qilgan Y.S.Stepanov XX asrning 70-yillarida rus tili madaniyatiga oid “Konstantlar” lug‘atini yaratdi<sup>13</sup>. 80-90-yillardagi B.A.Serebrennikov, V.N.Telia, E.S.Kubryakova, A.A.Ufimseva, V.I.Postolova<sup>14</sup> ishlari tilda inson omilining roli muammosi bilan bog‘liq tadqiqotlarni chuqurroq o‘rganilishiga turtki bo‘lib xizmat qildi.

Antroposentrizmning rivojlanishi olimlar nuqtayi nazarini o‘zgartirdi, konsept va lisoniy shaxs tushunchasi uning tadqiq obyektiga aylandi. O‘zida individual-mualliflik yondashuvi, milliy mentallik belgilarini ifodalash orqali matn badiiy konsept ifodachisi bo‘la oladi<sup>15</sup>.



### 1-rasm. Badiiy konseptning belgilari va tavsifi

Masalan: “*If he’d of lived he’d of been a **great man**. A man like James J.Hill. He’d of helped build up the country*” [Fitzgerald. Great Gatsby: 179]; “*After that I felt a certain shame for Gatsby – one **gentleman** to whom I telephoned implied that he had got what he deserved. However, that was my fault, for he was one of those who used to sneer most bitterly at **Gatsby on the courage of the Gatsby’s liquor** and I should have known better than to call him*” [Fitzgerald. Great Gatsby:181]; “*You see he’s a **regular tough** underneath it all*” [Fitzgerald. Great Gatsby: 85];

<sup>10</sup> Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С.69.

<sup>11</sup> Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 2008. – Б. 17.

<sup>12</sup> Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – 447 с.

<sup>13</sup> Степанов Ю.С. "Константы: Словарь русской культуры". Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – 838 с.

<sup>14</sup> Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 2008. – Б. 169.

<sup>15</sup> Худайберганава Д. Ўзбек тилидаги бadiiy матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол.фан. док. ... (DSc) дисс. автореф. –Тошкент, 2015. – Б. 21.

“... he smiled like a *weather man, like an ecstatic patron of reccurent light*, and repeated the news to Daisy” [Fitzgerald. Great Gatsby: 96]; “... he was a person of some *undefined consequence*, had gradully faded and he had *become simply the proprietor* of an elaborate roadhouse next door” [Fitzgerald. Great Gatsby: 70].

“... keksalar har ishda qo‘li bo‘lgan bu odamga “*Miryoqub epaqa*” laqabini berib, xato qilmaganlar” [Cho‘lpon. Kecha va Kunduz: 60]; “– Sen xuddi bir *amerikalikka o‘xshaysan*, Miryoqub! – dedi to‘ra. – Lekin ko‘nglingga og‘ir olma, chakki shu sartiya ichida tug‘ilib qolgansan!” [Cho‘lpon. Kecha va Kunduz: 65]; “*Miryoqubning tishlari, har holda, lablaridan kuchliroq-ku!*” [Cho‘lpon. Kecha va Kunduz: 90]; “*Oshnasi Miryoqubning yelkasiga qoqdi va “O‘lma, Miryoqub! Sart bolasi – fransuz...”, deb qo‘ydi*” [Cho‘lpon. Kecha va Kunduz: 129]; “... uning nima demoqchi bo‘lganini anglagan edi: “*Ayyor, lekin, bu aziat!*” – deb o‘yladi u. – Demak, sirni hech kimga aytmaydi. *Tuya kabi doim jim qoladi*” [Cho‘lpon. Kecha va Kunduz: 138]; “*Miryoqub – burungi Miryoqub emas, nega bu qadar sekin yuradi? Uning shu choqqacha sanab qadam bosganini ko‘rgan odam bormi dunyoda?*” [Cho‘lpon. Kecha va Kunduz: 140].

Misollardan ko‘rinib turibdiki, ingliz va o‘zbek badiiy asari qahramonlari Getsbi va Miryoqub obrazlari nafaqat qahramonga xos shaxsiyatlarni, balki o‘zlari tegishli millat vakillariga xos ijobiy (*great man – buyuk shaxs, gentleman – nozik muomalali janob, weather man like an ecstatic patron of reccurent light – shiddatli yomg‘irdan so‘ng ayamay nur sochuvchi bag‘rikeng; epaqa – uddaburon, amerikalik – topqir, ishlari lablaridan kuchli – o‘ylab gapiruvchi, fransuz – nozik didli, aziat – osiyolik, tuya kabi doim jim – sir saqlovchi*) va salbiy (*Gatsby on the courage of the Gatsby’s liquor – ichkilikdan jasorat oluvchi Getsbi, regular tough – muntazam qattiqqo‘l, undefined consequence – noaniq oqibatli, tushunarsiz, become simply proprietor – shunchaki mulk eagsi; ayyor – mug‘ombir, burungi Miryoqub emas – o‘zgargan*) xususiyatlarga ega erkak konseptining ifodachisi hamdir. Har bir mikromatn tavsifiy xarakterda bo‘lib, erkak konsepti maydoniga kiruvchi turli mikromatnlarning verbal ko‘rinishidir va ular erkak konsepti bilan bog‘liq assosiatsiyaning faollashuviga sabab bo‘lgan. Demak, badiiy konsept doirasida muallif konseptning o‘zi uchun muhim hisoblagan biror-bir qirrasini ifodalashi mumkin.

Lisoniy shaxs ma‘lum bir tilda nutqiy hosilalarni yaratuvchi va idrok etuvchi, o‘sha tildagi lingvistik qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan holda, o‘sha tilning milliy-madaniy protatipini namoyish etuvchisidir. Lisoniy shaxs atamasi diskursiv shaxs atamasiga tengdir va uning badiiy matnda ifodalanishi keyingi faslda batafsil ko‘rib chiqildi.

Bobning “*Badiiy matnning antroposentrik aspekti*” deb nomlanuvchi uchinchi faslida muallif va qahramon diskursiv shaxsining badiiy matnda ifodalanishini ko‘rib chiqamiz. “Diskurs – muayyan turdagi ijtimoiy mansublikni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan harakatlar, o‘zaro munosabatlar, fikrlash usullari, e‘tiqod, baholash kabi omillarning tildagi integratsiyasi natijasidir”<sup>16</sup>. Badiiy asar tahlilida muhim hisoblanuvchi diskursiv shaxsning nazariy asoslangan

---

<sup>16</sup> Gee J.P. An introduction to discourse analysis. Theory and practice. – London: Routledge, 2005. – P.209

strukturasi mavjud, ammo aniq me'yorlar belgilanmaganligi tufayli badiiy asarda diskursiv shaxsning farqli jihatlari shartli sanaladi.

Muallif diskursiv shaxsi o'zida muayyan kommunikativ, madaniy tarixiy, milliy, ijtimoiy hamda individual va lingvistik ijodkorlik xususiyatlarni aks ettiruvchi shaxsiyat sifatida muallifga xos bo'lgan modallik munosabatlarini o'zida aks ettirgan konseptual dunyo manzarasini ochib berishga qaratilgan bo'ladi. Muallif diskursiv shaxsiga xos unsurlar *muallif mulohazalari, matn sarlavhasi, epigrafi, tavsiflovchi kontekstlar va lingvokonsept* kabi matn birliklarida namoyon bo'ladi.

Qahramon diskursiv shaxsi qahramonning ichki dunyosini semantik-stilistik, kommunikativ-pragmatik, kognitiv, madaniy va psixologik xususiyatlar orqali ochib beradi, badiiy diskursning elementi sifatida badiiy muloqotlarda namoyon bo'ladi. U asarning yaratilishi va qabul qilinishini belgilab beruvchi belgilar hamda o'ziga xos xususiyatlar yig'indisi sifatida tasvirlanadi. Sababi qahramon diskursiv shaxsi muallifning ijodiy niyatini ifodalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi va *badiiy dialog, grafik vositalar va bilvosita nutq* muallif hamda qahramon diskursiv shaxsida ifodalanadigan nutq birliklari hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Badiiy matnga lingvomadaniy va pragmatik yondashuv”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida badiiy matnga xos lingvomadaniy va pragmatik jihatlar, ularning mazmuni, vazifalari, ingliz va o'zbek badiiy asarlarida insonlar o'rtasidagi munosabatlarning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari tahlil qilingan, munosabatlardagi farqlar va o'ziga xosliklar aniqlangan. Bobning *“Til tizimining lingvomadaniy xususiyatlari”* deb nomlangan birinchi faslida lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning bir-biriga bo'lgan munosabati, ulardagi o'zaro ta'sir jarayoni, funksional xususiyatlari tizimli va zamonaviy metodlarga asoslangan holda tadqiq qiluvchi majmuaviy yo'nalish sifatidagi xususiyatlari bayon qilingan.

Lingvokulturologik tahlilning asosiy tushunchalaridan biri lingvokulturema lisoniy va nolisoniy mazmunning dialektik birligi sifatida ta'riflanib V.V. Vorobyov tomonidan taqdim etilgan<sup>17</sup>. U o'z semantikasi (ma'nosi)da madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi bo'lib, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlarni o'z ichiga oladi. Badiiy matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari aniqlashda ularda uchraydigan muqobilsiz leksikalar, frazeologizmlar, o'xshatishlar, metafora, evfimizm, disfemizm hodisalari, lakunalar, ramzlar, milliy madaniyatning stereotiplari singari lingvomadaniy birliklar tahlili muhim ahamiyatga ega.

Konseptlar xalqlarga xos madaniyatning o'ziga xos jihatlarni ifodalovchi eng ko'p qo'llaniladigan lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Lingvomadaniy konsept ong tizimida vazifaga kirishadi va sotsiumning qadriyatlarini aks ettiradi. Lingvomadaniyatshunoslik jamiyat qadriyatlariga qaratilgan mo'ljallarni aniqlaydi<sup>18</sup>. Qadriyatlar lingvomadaniy konseptning markazini tashkil etadi. Ular

<sup>17</sup> Воробьев В.В. Лингвокультурология: (теория и методы). – М.: Изд-во Росс. Ун-та дружбы народов, 1997. – 331 с.

<sup>18</sup> Babaeva E.V. Linguistic and cultural characteristics of Russian and German. – Volgograd, 2004. – P.110-111.

voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatadi va u inson bilan chambarchas bog'liq holda uning shaxsiyati shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Inson qadriyatlar tizimida jamiyatning fikrlariga moslashish orqali bir qancha insoniy sifatlarni o'zida saqlab qoladi. Qadriyatlarning shakllanishi har ikki mamlakat vakillari uchun ijtimoiylashuv ehtiyojidan kelib chiqqan. Milliy-madaniy qadriyatlar avloddan-avlodga o'tish natijasida millat vakillaridagi shaxsiyatlarning shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazgan va bu ularning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Bobning "*Badiiy matnning pragmatik mazmuni*" deb nomlangan ikkinchi faslida pragmatik tahlilda pragmatik mazmuni shakllantiruvchi hodisalar *propozitsiya, referensiya, eksplikatura, implikatura, interferensiya, relevantlik, presuppozitsiyalar* va matnda pragmatik mazmuni ifodalovchi *deyxis* hodisasi, hamda pragmatikaning kommunikativlik xususiyatini namoyon etuvchi *nutqiy akt* nazaryasining badiiy matndagi o'rni, vazifalari tahlil qilingan.

Ingliz va o'zbek tillarida nutqiy akt guruhlarining moddiylashuvida insonlar o'rtasidagi munosabatlarning milliy, madaniy o'ziga xosliklari namoyon bo'ladi. Nutqiy aktlarning guruhlari va ularning miqdoriga turli yondashuvlar mavjud. Biz o'z tadqiqotimizda nutqiy aktlarning J.Syorl tomonidan belgilangan tasnifiga asoslangan holda ingliz va o'zbek lisoniy madaniyatida, muloqot etiketida insonlar o'rtasidagi munosabatlar ifodalanishini illokutiv maqsadiga ko'ra o'xshashlik va tafovvutlarini quyidagicha belgiladik. Keltirilgan inglizcha misollar J.Ostinning "Pride and Prejudice", o'zbekcha misollar A.Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asaridan olingan.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlarda keskin o'zgarishga olib keluvchi yoki inson hayotida tub burulishlar yasaydigan jarayonlarni ifodalashda qo'llaniladigan **deklarativ** nutqiy aktlar ingliz tilida ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikka ega. **Ijobiy:** "*If your feelings are still what they were last April, tell me so at once. My affections and wishes are unchanged, but one word from you will silence me on this subject for ever*". (p.451). **Salbiy:** "*My younger sister has left all her friends – has eloped; has thrown herself into the power of Mr. Wickham*" (p.340). Har ikkala holatlar kutilmagan muhim o'zgarishlarni tasvirlagan kuchli ta'sirga ega deklarativ aktlar orqali ifodalangan: birinchi holatda *turmush qurish taklifi* anglashilgan bo'lsa, ikkinchi holatda to'satdan Lidiyaning *qochib ketishi* Bennetlar xonadoni uchun sharmandalikni anglatadi.

O'zbek tilida munosabatlarning deklarativ akt orqali ifodalanishi voqeaning o'zgarishi bilan bog'liq: "*Men senga xotin bo'l, deb taklif qilmoqchiman*" (b.204). O'zbek tilshunosligida deklarativ aktlarning ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikka ega ekanligi haqida ilmiy fikrlar berilmagan bo'lsada, bu xususiyat o'zbek tilidagi deklarativlarda ham kuzatilishi mumkin. "*Aybdor Zebinisa Razzoq so'fi qizi Harbiy sudning hukmi bilan yetti yil Sibir qilindingiz*" (b.284). Demak birinchi gapni ijobiy, ikkinchi gapni salbiy bo'yoqdor gap sifatida e'tirof etish mumkin. Ingliz tilida deklarativ aktlardan kundalik hayotda hissiyotlarga tayanilgan qarorlarni, shaxsiy munosabatlarni ifodalashda foydalanilsa, o'zbek tilida, asosan, rasmiy munosabatlarni bayon etishda qo'llaniladi.

Muloqotda rost deb hisoblangan ma'lumotni tinglovchiga uzatishda **assertiv** nutqiy aktlardan foydalaniladi: *“Well, he certainly is very agreeable, and I give you leave to like him. You have liked many a stupider person”* (p.17). Elizabet opasining xarakteridan kelib chiqib yigitning unga yoqishiga ishoniyapti. Mazkur nutqiy akt ifodalaydigan munosabat ingliz va o'zbek tillarida deyarli farq qilmaydi: *“Zerikdingizmi, xo'jayin? Darhaqiqat, bu nozik zamonda katta amal ham zeriktiradi”* (b.228). Bu yerda faqat zamon deganda davrni emas, Miryoqubning yo'qligini ham nazarda tutmoqda. Ba'zan kishilar o'rtasidagi munosabat assertiv nutqiy aktlar orqali ifodalanganda, ular anglatmoqchi bo'lgan haqiqat alluziyaga asoslanib dalillanadi: *“Siz-biz “tushmasin”, deganimiz bilan tushmay qolarmidi? Xudo o'zi tushadigan qilib yaratgan ekan-da”* (b.47). O'zbek muloqot etiketida assertiv nutqiy aktlar strukturasi ritorik so'roq gaplar yordamida hosil qilinadi va pragmatik mazmun bilvosita ifodalanadi. Ingliz tilida assertiv aktlar strukturasi asosan darak gaplar qo'llaniladi va uzatilayotga ma'lumotning rostligini ifodalashda o'zbek tili singari hamma uchun ma'lum bo'lgan faktlarga asoslaniladi.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlarning hissiy psixologik jarayonlarni aks ettiruvchi **ekspressiv** nutqiy aktlar *shikoyat qilish, kechirim so'rash, xushomad (fatik birliklar), maqtov, xafa bo'lish, tabriklash, hayratlanish, ta'ziya izhor qilish, sevgi izhor qilish* kabi mazmunlarni ifodalash vazifasini bajaradi. Aynan ushbu guruh nutqiy aktlarda biz qiyoslayotgan o'zbek va ingliz madaniyati, qadriyatlari, milliy mentalligida turlicha bo'lgan yorqin farqlar va ma'lum o'ziga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. *“Don't keep coughing so, Kitty, for Heaven's sake! Have a little compassion on my nerves. You tear them to pieces”* (p.6); *“Tuppattuzuk so'fi odam bir benamoz, bir bo'zaxo'rga qiz berib o'tiribsiz?”* (b.112) (shikoyat); *“Our poor mother is sadly grieved”* (p.336); *“Ishqilib, bizni Abdisamatga tenglashtiribdi, degin. Miryoqubdan kelgan oqibat shu bo'libdida...”* (b.256); (xafa bo'lish). Ingliz tilida shikoyat va xafa bo'lishni ifodalovchi nutqiy akt namulalarini ko'proq tashqi nutqqa xos ekanligini ko'ramiz. O'zbek tilida mazkur mazmundagi nutqiy ifodalar tashqi nutqda oz miqdorda qo'llanilishi va bunday ifodalarning ko'proq ichki nutqqa xos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu xususiyat o'zbeklarning salbiy hissiyotlarni tashqariga chiqarish doim ham to'g'ri emas degan aqidasi borib taqaladi.

*“I am sorry to say it of them, but so it is”*. (p.176); *“Kechiring, taqsir, ayb menda”*. (b.287) (kechirim so'rash); *“I wish Jane success with all my heart”*; (26); *“To'y qulluq bo'lsin, so'fi! Juda soz bo'libdi!”* (b.110) (tabrik); *“Poor Jane! I am sorry for her, because, with her disposition, she may not get over it immediately”* (p.177); *“Chakki qilib qo'yibsiz, xo'jayin! – dedi. – Bilmadim, bu ishingizning oqibati nima bo'larkan?”* (b.252) (afsus). Kechirim so'rash, tabriklash, pushaymonlik mazmunidagi ifodalar muayyan standart vaziyatlarda so'zlovchi tomonidan tan olinishini ifodalovchi nutq harakatlaridir. Salomlashish, minnaddorchilik, duo qilish ham mazkur guruhga kiradigan, muloqot etiketida doimiy tarzda faol qo'llaniladigan nutqiy ifodalardir. Ta'ziya bildirish ifodalari ingliz tilida so'zlovchining bu holatdan xafa ekanligini, vafot etgan insonning xotirasi abadiy yashashini ifodalasa, o'zbek tilidagi ta'ziya nutqiy ifodalarning

katta qismi soʻzlovchining vaziyatga hissiy bahosi emas, vafot etgan insonning oxiratini va narigi dunyosi goʻzal boʻlishi mazmunidagi hamdardlik ifodalaridagi tafovutlar yaqqol koʻzga tashlanadi: *“Alloh rahmatiga olgan boʻlsin”, “Oxirati obod boʻlsin”, “Alloh iymonini bersin”*. Shuningdek, taʼziya bildirish, hamdardlik izhor etish mazmunidagi nutqiy aktlarda oʻzbek xalqining oʻziga xos nozik xususiyatlari namoyon boʻladi. Oʻzbek muloqot madaniyatida oshkora sevgi izhori kamdan-kam uchraydi. Oʻz hislarini “qogʻozga oʻrab” bildirish oʻzbek xotin-qizlariga xos boʻlgan ibo-hayoning yorqin koʻrinishidir.

Xushomad, maqtov, hayrat, haqorat mazmunli nutqiy aktlarda soʻzlovchining ijroni tartibga soluvchi choralar sifatida murojaat qiladigan baholovchi munosabati namoyon boʻladi. Ular hissiy taʼsirlarning ijtimoiy va shaxslararo rollarini tinglashdagi hissiyotni ifodalovchi nutqiy harakatlardir: *“... for as you are as handsome as any of them, Mr. Bingley may like you the best of the party”*. (p.3); *“Esingga qoyilman, betavfiq! Shuncha esing bor-u namoz oʻqimaysan! – Sizga ergashib, shunday boʻldim-da! Mingboshi endi juda yoyilib kuldi”*. (b.69) (xushomad); *“Oh! She is the most beautiful creature I ever beheld!; Absamatni yiqitsam, seni mingboshi qilib qoʻyardim. Abjirsan, bachchagʻar!”* (b.227) (maqtov); *“Good Lord! Sir William, how can you tell such a story? Do not you know that Mr. Collins wants to marry Lizzy?”* (p.160); *“Voy, oʻla qolay! – deb baqirdi. – Eshonbuvam oʻzlari boshmi hali? Voy, shoʻrim qursin-ey!”* (b.113) (hayrat) Ingliz tilining hissiy-ruhiy mazmunni ifodalovchi nutqiy aktlarda undov soʻzlarning faol qoʻllanilishi ingliz tiliga xos rang-baranglikni ifodalaydi. Ingliz tilida oʻzini oshkora maqtovchi nutqiy aktlar koʻplab uchraydi: *“I am not afraid; for though I am the youngest, I’m the tallest”* (p.8) (Buning hayron qolarli joyi yoʻq yosh boʻlsam-da, mening boʻyim hammadan baland). Oʻzbek tilida soʻzlovchining hissiy munosabatini ifodalovchi pragmatik mazmun undov gaplar bilan birgalikda soʻroq gaplar orqali ifodalanadi va bu oʻzbek tilida soʻroq gaplarning pragmatik imkoniyati keng ekanligini anglatadi. Shuningdek, har ikki tilda nutqiy aktning ochiq va yashirin tarzda namoyon boʻlishi umumiy jihatlarning mavjudligini koʻrsatadi.

Insonlar oʻrtasidagi munosabatlarda soʻzlovchining iltimos, buyruq, ogohlantirish, tahdid, soʻroq mazmunidagi nutqiy maqsadlarini ifodalash orqali tinglovchini maʼlum harakatga undovchi **direktiv** nutqiy aktlarda soʻzlovchining illokutiv maqsadiga mos nutqiy-pragmatik vaziyatning perlokutsiyasi, yaʼni tinglovchining natijaviy harakati ham mavjud boʻladi: *“But, my dear, you must indeed go and see Mr. Bingley when he comes into the neighbourhood”* (p.3); *“Indinga ketadigan boʻlsak, menga bir dutor chalib, ashula aytadiganini topib ber”* (b.159); kabi buyruq-iltimosni ifodalovchi nutqiy aktlar illokutiv maqsadni aks ettirib, tinglovchini maʼlum harakatni bajarishga undaydi. Shuningdek, buyruq mazmunidagi gaplarda feʼlning boʻlishsizlik shaklda, soʻroq gap tarzda ifodalanishi soʻzlovchining xushmuomalalik orqali tinglovchini biror harakatni bajarishga undash mazmuni tushuniladi: *“Bugun kutubxonaga kelolmaysizmi”, “Derazani yopib yuborolmaysizmi”*

Ingliz tilida muloqotning situativ-pragmatik vaziyatiga koʻra direktiv nutqiy aktlarning qator darajalari ajratiladi: **Kuchli**: *“go out”, “out now”*. **Kuchsiz**: *“you*

go out”, “you are going out”, “go out, will you”, “Go out please”, “I order you to go out”, “I command yo to go out”. **An’anaviy bilvosita:** “You must go out”, “Will you go out”, “Can’t you just go out”, “I am sure you would like to go outside”, “I wish you would go out”, “Don’t you mind If you go out”, “Would you like to go out”, **Noan’anaviy bilvosita:** “it is nice outside”, “I would go outside”. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va ingliz tillarida direktiv aktlar illokutsiyani ifodalashda qo‘llaniladigan vositalar, grammatik shakllar va ifodalanish tarzida farqlar ko‘rinadi.

Kelajakda bajarilishi so‘ralganda ikkinchi shaxs tomonidan ushbu vazifani bajarishga va‘da berish, rozi bo‘lish, rad etish va shunga o‘xshash majburiyatlarni ifodalashda **komissiv** nutqiy aktlardan foydalaniladi. “I may safely promise you never to dance with him” (p.23); “Qizingizni, xudo xohlasa, o‘zim to‘y qilib, o‘zim uzataman!” (b.46); (va‘da); “I have no more to say. If this be the case, he deserves you” (p.465); “Endi achingandan nima foyda! Bo‘lar ish bo‘libdi... Mayli endi” (b.56); (rozilik); “It is a compliment which I never pay to any place if I can avoid it” (p.31); “Yo‘-o‘-q!.. o‘libmanmi o‘z erimni o‘ldirib” (b.281) (rad etish). Komissivlarning asosiy vazifasi ma‘lum bir yo‘nalishda so‘zlovchining majburiyatni bajarishidir. Ingliz tilida so‘zlovchi o‘zining majburiyatini tan olsa, o‘zbek tilida ko‘pincha so‘zlovchi o‘zgalarning majburiyatini o‘z zimmasiga olishi kuzatiladi.

Shuningdek, “hech qachon”, “aslo”, “ikki dunyoda ham”, “hech ham” kabi so‘zlar, “Tuyani dumi yerga tekkanda”, “Tushingni suvga ayt”, “Tuya hammomni orzu qilibdi”, “Chuchvarani xom sanabsan” kabi iboraviy birliklar bilan **kuchli** rad etish mazmuni bayon etiladi: *Sizga hech qachon ignadek yomonlikni ravo ko‘rmaydi* (b.256).

Barcha tillarda nutqiy aktlarning umumiy xususiyatlari mavjud bo‘lsada, turli madaniyatlarda har bir nutq akti uchun mos bo‘lgan ma‘nolar, ularning qirralari mutlaqo farqli vazifalarni bajarishi mumkin. Ingliz va o‘zbek muloqot etiketida nutqiy akt guruhlarini tahlil qilish, uning lingvopragmatik xususiyatlarini bilish nafaqat insonlar o‘rtasidagi ijtimoiylashuv jarayonlarini aniqlashda, balki globallashtayotgan dunyoda millatlararo muloqotda, ijtimoiy muvozanatni saqlashda, muloqotning samaradorligini oshirishda ham ahamiyatlidir.

Bobning “*Badiiy matnlarda personajlar munosabatlarining o‘ziga xos lingvomadaniy hamda pragmatik tahliliga turlicha yondashuvlar*” deb nomlangan uchinchi faslida ingliz va o‘zbek badiiy adabiyoti namunalaridan keltirilgan parchalar orqali tog‘a/amaki va jiyan munosabatlari, qarindoshlar munosabatlari, ota-ona va turmush qurish yoshidagi qizlar o‘rtasidagi munosabatlar, ingliz va o‘zbek millatlarining to‘y-marosimlarga bo‘lgan munosabatlari tahlil qilindi va quyidagi pragmatik farqlar, lingvokulturologik o‘ziga xosliklar aniqlandi: a) o‘zbek millati vakillari o‘z fikr munosabatlarini bilvosita nutq orqali: *Ol, jiyan yo‘l yurib kelgansan*, ingliz millati vakillari bevosita nutq orqali ifodalashga moyil: “If you are hungry,” he said to David, “you can eat the porridge. There is water to drink if you are thirsty.”; b) o‘zbeklar murojaatda mulozamat, takallufni: *Bir parcha yerlaring borligini eshitar edim, qo‘llaringdami?* – inglizlar esa aniqlik va shartlilikni afzal ko‘rishadi *Is your father dead?*; d) o‘zbeklar ijtimoiy faoliyatda

ko‘proq umumiylikka (patnisda ikki kishi uchun ajratilmasdan birga tanovvul qilish uchun keltirilgan ne‘matlar), inglizlar xususiylikka e‘tibor qaratishadi: *A table was set for supper with a bowl of porridge, a horn spoon, and a cup of beer*; e) o‘zbek millatida qarindoshlarning bir-biriga qarindoshlikni ifodalovchi *tog‘a, jiyan* so‘zlari bilan, inglizlar *janob, xonim* so‘zlari yoki ism va familyalar bilan murojaat etishadi: *Ebenezer Balfour*; f) o‘zbeklar uchun *choy, non, mevalar* – inglizlar uchun *beer, porridge* ichimlik va ozuqa etalonlari hisoblanadi; g) o‘zbek millatida murojaat shakllarini hosil qilish uchun ismlarga semantik to‘liqlikka ega so‘zlar va qo‘shimchalar qo‘shilib kengaytiriladi: *xo‘ja, nazar, polvon, hoji, bek, jon boy, oyim, begim, beka, poshsha, xon, oy* – ingliz millatida aksincha ismlarni qisqartirish yo‘li bilan murojaat qilinadi: *Lizzy – Elizabeth* (Pride and Prejudice), *Huck – Huckleberry, Tom – Tomas* (Tom Sawyer’s adventure); insonlarga xususiyati (laqabi)ga ko‘ra murojaat qilinishini har ikki millat madaniyatida ham kuzatishimiz mumkin: *Tom Canty* (canty – sho‘x, chaqqon), *Miryoqub epaqa* (epaqa – izga tushuruvchi), *farang baqqol* (farang – mohir); h) turmush qurish borasida inglizlar turmush o‘rtoq tanlashni yoshlarning o‘zi hal qiladi: *I have no more to say. If this be the case, he deserves you.* – o‘zbek xalqi uchun bu muhim masala otalar tomonidan begilanadi: *Qizingni mingboshiga berib keldim, taraddudingni qil!*; i) bo‘lajak turmush o‘rtoq haqida qizlarning ota-onasi bilan suhbat, bu borada bir-birlariga munosabat bildirishi ingliz millati uchun odatiy hol bo‘lsa: *I hope not so. Imprudence or thoughtlessness in money matters would be unpardonable in me* – o‘zbeklar uchun bu andishasizlik, ba‘zi o‘rinlarda tarbiyasizlik hisoblanadi: *So‘zlash ham kerak emas, bildirish ham*; j) o‘zbek xalqi uchun turmush borasida urf-odatdan chiqmaslik qadriyat hisoblanadi: *Chunki odat shu! Kumush ota-ona yoqtirg‘an kishiga rozi bo‘lish uchun majbur* – inglizlar turmushda ko‘proq moliyaviy ahvolga e‘tibor qaratishadi: *... and so generous, that you will always exceed your income*; k) ingliz badiiy asarlarida dialogik nutq – o‘zbek badiiy asarlarida monologik nutq yetakchilik qiladi; l) ingliz to‘ylarida ixchamlik, tezkorlik, mustaqillik yetakchi omil hisoblansa: *“The photographer will be fifteen dollars. ...” “We can skip that,” I said. “We don’t need photographs.”* – o‘zbek to‘ylarida maslahatlashish, urf-odatga bo‘ysunish, mehmondorchilikka urg‘u berish omillari yetakchi hisoblanadi: *“ – O‘lar joydamisiz, Salim aka! Bittayu bitta o‘g‘lingiz... El ichida yurgan odamsiz... Biz sizga ko‘pkari qilib sovringa ho‘kiz qo‘ying deytoganimiz yo‘q, olish qilib, tovoq qo‘ying deytoganimiz yo‘q. “Qo‘y so‘ydi” qiling, “kuyov qochdi”, “supra qoqdi” qiling demadik! Nima qilsak, elimizning obro‘si ketmasin deb qilyapmiz.*; bu shuningdek, inglizlar to‘y xarajatlarini iqtisodiyotidan kelib chiqib amalga oshirsalar – o‘zbeklar ko‘pincha moliyaviy ahvolini hisobga olmasliklarini ham ko‘rsatadi; m) ingliz badiiy diskurlariga qaraganda o‘zbek badiiy diskurslarida pragmatik intensiya ko‘proq bilvosita nutq orqali implisit tarzda ifodalanadi: *Ana, “Pravda” kolxozida bir suvchi o‘g‘lini to‘y qildi. Olishning sovriniga tuya qo‘yibdi, azamat! O‘shalardan kam joyimiz bormi?! Yaxshimas-da!”*; n) ingliz to‘y marosimlari bilan bog‘liq *civil ceremonies, white wedding, aisle, confetti, wedding band, wow, buffet, band* kabi lingvomadaniy birliklar – o‘zbek to‘ylari bilan bog‘liq *sovchilik, unashtirish, fотиha to‘yi, qiz bazmi, kelin salom, quda chaqiriq, ko‘pkari, olish, qo‘y so‘ydi,*

*kuyov qochdi, supra qoqdi ko'pkari, tovoq* singari marosimlar aniqlandi; o) inglizlar turmush tarzida yog'ochdan yasalgan buyumlar: *horn spoon, bed, furniture, staircases, table, chairs*; o'zbeklar ijtimoiy hayotida *ko'rpa, par to'shak, oltin kamar* kabi faol qo'llaniluvchi lingvomadaniy birliklar aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Oila va do'stlik munosabatlarining o'zbek hamda ingliz lisoniy madaniyatida tasvirlanishi”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida insonlar eng ko'p munosabatga kirishadigan, ular o'rtasida ijtimoiylashuv jarayonlari eng ko'p yuz beradigan oila va do'stlik konseptini assotsiativ tarzda til egalari xotirasida voqealantiruvchi leksik birliklar tasniflandi. Ingliz va o'zbek badiiy asarlari orqali millatlarga xos oilaviy munosabatlar va do'stlik munosabatlarining lingvomadaniy jihatlari tahlil qilinib, ularda uchraydigan ekspressiv-stilistik vositalar va ular bajaradigan pragmatik vazifalar tahlil qilindi.

Bobning *“Ingliz va o'zbek badiiy asarlarida “oila” konseptining lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari”* deb nomlanuvchi birinchi faslida oila konseptining lingvomadaniy birliklari aniqlandi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar ingliz va o'zbek badiiy asarlaridan keltirilgan parchalar orqali tahlil qilinib ulardagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar oila konseptining uchta yirik *otalar, farzandlar, qarindoshlar munosabati* mikrokonseptlarni tashkil etadi va o'zida *oila boshlig'i, oila a'zolari, uy xo'jaligi, oilaviy majburiyatlar, oila nizomi, oilaviy rollar, oilaviy munosabatlar* singari bir qancha freymlarni namoyon etadi. O'zbek xonadonidagi juftliklar uchun oila tushunchasi, asosan, bolalarni dunyoga keltirish, ularning o'sishi, rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratishdan iborat uyg'un baxtli hayotga intilishni bildiradi. Inglizlarda oila bir-birini sevadigan juftlikning birga yashashi uchun yaratiladi. Demak o'zbek oilalaridagi munosabatlar axloqqa, Britaniya oilalaridagi munosabatlar hissiyotga asoslanadi.

Oila konseptining asosini tashkil etgan leksemalardan biri bo'lgan ota so'zi o'zbek adabiyotida *padari buzrukvor, qiblagoh, pushtipano* leksemalari bilan uchraydi<sup>19</sup>, barcha oila a'zolari itoat etishi kerak bo'lgan oila boshlig'i, boquvchisi. Pirga tenglashtirilgan ulug' inson. Ona mehribon, jonkuyar, fidokor, muhtarama zot; *valida* leksemasi ona so'zining to'liq ma'nodoshi; qariganda ham ularga ehtirom ko'rsatiladi va uyning to'ridan joy beriladi. *Ota* – o'g'il bolaga, *ona* – qiz bolaga nisbatan yoqimli erkalash muomalasini, mehrlil murojaatini, katta insonlarning ismiga qo'shilganda hurmat ma'nosini anglatadi. Ota so'zi qarindoshlikni ifodalashdan tashqari asoschi, baxsh etuvchi ma'nosini ham beradi: *Odam ato* (*ato* – ota so'zining derivatsion o'zgarishi va qadimgi shakli) – insoniyat ibtidosi, asoschisi; fan, adabiyot va boshqa sohalarda biror bir kashfiyotning asoschisi ham *ota* leksemasi bilan ifodalanadi.

Inglizcha *father* so'zi martaba mavqe semantikasiga ega va katta yoshni bildiradi. *Father* leksemasi unvonlarda: *Most Reverend Father in God / Right Reverend Father in God* – Arxiyepiskop hazrati oliylari, episkop unvoni; katta daryolarni nomlashda: *Father of Waters* – Missisipi daryosi; ba'zi evfemizmlarda:

---

<sup>19</sup> Anorqulova O. O'zbek tilida “ota” konseptining lisoniy-kognitiv talqini: Avtoref.diss. ... filol. fanlari bo'yicha falsafa dok (PhD). – Samarqand, 2023. – B. 19.

*Father of lies* – shayton; katta ma'nosini ifodalaydi. *Mother so'zi* onalik tushunchasining asosini tashkil etadi va uning yordamida *motherhood* – onalik, *mother-craft* – bolalarni tarbiyalash mahorati singari o'zakdosh leksemalar hosil qilinadi. *Mother of pearl* – sadaf; *mother of thousands* – yovvoyi zig'ir birliklarida *mother* leksemasi o'z lug'aviy ma'nosini voqelantirmaydi. *Mehribonlik, noziklik, kuch-quvvat, g'amxo'rlik* mother konseptining freymlarini tashkil etadi. Ingliz va o'zbek tillarida Vatan tushunchasi *mother / ona* leksemalari bilan ifodalanadi: Motherland = Ona yurt – Vatan.

Oila – odamlar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarning muhim ko'rsatkichidir. Odamlar turmushining nozik tafsilotlari haqida boy ma'lumotlarni o'z semantikasida aks ettiruvchi badiiy asarlardan foydalangan holda o'zbek va ingliz oilaviy munosabatlariga xos lingvomadaniy pragmatik xususiyatlar, ba'zi yo'qolib borayotgan an'analar, xalqlarga xos fazilatlar aniqlandi.

O'zbek xonadonlarida erkakning o'z xotini nomi aytib chaqirmasligi XX asr boshlariga qadar an'ana sifatida amalda bo'lgan: “– *O'zbekda ahir har bir erkak o'z xotinini-o'z halol juftini qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. O'z xotini nomi aytib chaqirish yaramaydi. Xotini nomi Maryam, qizining nomi Xadicha bo'lsa, mo'min-musulmon: – sharmu hayo yuzasidan bo'lsamikan? – xotinini “Xadicha” deb chaqiradi*” [Cho'lpon. Kecha va Kunduz: 11].

Inglizlar oilalariga xos shunga o'xshash lingvomadaniy jihatlardan biri, hozirgi kunda uchramaydigan er-xotinning bir-biriga rasmiy uslubga xos *Mr* va *Mrs* so'zlari bilan murojaat qilishi: “*My dear Mr. Bennet, replied his wife, how can you be so tiresome! You must know that I am thinking of his marrying one of them*” [Austin. *Pride and Prejudice*: 3].

O'zbek millatiga xos oilaviy munosabatlarning yana bir lingvomadaniy jihati bu – oiladagi ijtimoiy rollarda kundoshlik munosabatining XX asr o'rtalariga qadar mavjud bo'lganligi: “*Chinakam, bir zamon o'zi shu bechora xotinning ustiga kundosh bo'lib kelib, uning yuragini timalagan, uni rashk va ko'rolmaslik olovlarida yondirgan edi. U vaqtda o'zi – kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi... Xadichaxon esa ezildi, kuydi, o'rtandi, xo'rlanib-xo'rlanib achchiq-achchiq yig'ladi. Faqat hali bo'yida bo'lmay turib, o'zining peshonasiga ham kundosh bitdi*” [Cho'lpon. Kecha va Kunduz: 47].

O'zbek xonadonlaridagi ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar hurmatga asoslangan: “*Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas*” [Qodiriy. O'tkan kunlar: 75]. Ingliz jamiyatda ota-onalarning farzandlari bilan bo'lgan munosabatlarni erkinlik va mustaqillik tamoyillariga asoslangan: “*Yes, Marmee, do you want anything in town?*” [Alcott. *Little women*: 652].

O'zbek badiiy matnlarida inson ruhiyatidagi kontrastlikni bo'rttirib tasvirlash, fikrni dalillash maqsadida antitezadan keng foydalaniladi: *kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi...* Mazkur qatordagi so'zlarni birdaniga zidlantirish orqali esa tasvirning ta'sirchanligi yanada oshirilgan: “*ezildi, kuydi, o'rtandi, xo'rlanib-xo'rlanib achchiq-achchiq yig'ladi*” Yana bir misol sifatida birinchi kontekstni dalillash uchun “... *so'fi mo'min-musulmonning bu urfiga ham*

*amal qilmaydi, u o‘z halol jufti Qurbonbibini hamma vaqt “Fitna” deb chaqiradi*” [Cho‘lpon. Kecha va Kunduz: 11] jumllarini keltirishimiz mumkin. So‘fi o‘z nomidan ko‘rinib turibdiki, taqvodor, dindor inson, shunga qaramasdan u musulmonlarning bu urfiga amal qilmaydi va o‘z mansabi (so‘filigi)ga zid ish tutadi, o‘z xotinini “Fitna” deb chaqiradi. Kontekstual antonim matnning ta’sirchanligini yanada oshiradi. Ingliz badiiy asarlarida oilaviy munosabatlarni ifodalashda o‘z-o‘zini fosh etish san’atidan foydalaniladi va drammatik unsur yetakchilik qiladi, ijobiy emotsional munosabatlar ochiq oydin ifodalanadi: “*Oh! Single, my dear, to be sure!; What a fine thing for our girls!; How so? How can it affect them?*” [Austin. Pride and Prejudice: 3].

O‘zbek oilalarida ayollarning oilaga bo‘lgan sadoqati, fidoyiligi, uy ishlariga bo‘lgan ma’suliyati oila mustahkamligini ta’minlovchi omil hisoblanadi: *Adajonisi turaqoling endi, erinmang, nonushta tayyor, yaxshi ko‘rganingiz – quymoq ham muntazir* [Hamdam. Muvozanat: 112]. Ingliz oilaviy munosabatlarida sovg‘a qilish, sovg‘a olish yoqimli jarayon sifatida oilaning totuvligini ta’minlaydi: *A gift for my darling I said. Richard, please! What did you get?* [Bach. The bridge across forever: 214].

Ingliz oilaviy munosabatlari hissiyotga asoslangni sababli, hech qanday an’ana yoki farzandlar ularning ajrimga kelmasligiga sabab bo‘lolmaydi. Shu sababli inglizlarda aniq hissiy obrazga ega bo‘lgan “*zoo Daddy*” dam olish kunlari farzandlari bilan uchrashish huquqiga ega ota ma’nosini ifodalovchi frazeologizm mavjud. O‘zbek tilida esa bunday birlik yoki unga teng keladigan so‘z yo‘q. Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish uchun, aynan, realistik adabiyot durdonalariga murojaat qildik, ulardagi mushtarak va farqli jihatlarini aniqlashga urindik. Quyidagicha umumiylik va farqlarga guvoh bo‘ldik:

## 1-jadval

### Oila konseptining lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari

Asar	Konsept xususiyatlari	Lingvomadaniy xususiyat	Pragmatik xususiyat
Cho‘lpon “Kecha va kunduz”	Oilaviy urf-odat, ijtimoiy qadriyat, odob axloq me’yorlari	Andisha, itoatkorlik, ichki muvozanat	Bilvosita muloqot
J.Ostin “Pride and prejudice”	Oila va shaxsiy erkinlik	Mustaqillik, jamiyatning roli	Bevosita muloqot, ochiqlik
A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”	Oila va an’analar	Birdamlik, maslahatlashish, hurmat	Yashirin ma’no va kinoya
L.M.Alcott “Little women”	Oilaviy birdamlik	Individuallik va ochiqlik	Ochilgan hissiy ifodalar
S.Ahmad “Ufq”	Oilaviy birlik	Oilaparvarlik	Yumshoq iboralar va ishoralar
R.Bax “The bridge across forever”	Oila va tenglik	Texnologiyaning oiladagi o‘rni	Erkin munosabatlar
U.Hamdam “Muvozanat”	Oila va stereotip	O‘zbekona odob va aql uyg‘unligi	Muloyimlik orqali o‘z maqsadiga erishish

Bobning “O‘zbek va ingliz lisoniy madaniyatida “do‘stlik” konseptining ifodalanishi hamda uning badiiy asarlardagi pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi faslida “do‘stlik” konseptining til birliklaridagi o‘rni, badiiy matnlar orqali do‘stlik munosabatlarining ingliz va o‘zbek millatiga xos xususiyatlari aniqlandi.

Do‘stlik, avvalo, insonning samimiylik, sofdillik xususiyatlariga asoslangan emotsional tuyg‘ularidan biridir. U ijtimoiy-axloqiy tushuncha sifatida, o‘zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyliigi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o‘rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Do‘stlik qonqardoshlik, birodarlik, o‘rtoqlik tushunchalariga yaqin, lekin o‘zining tanlash xususiyatiga ega ekanligi, his tuyg‘uga asoslanganligi bilan ulardan farq qiladi.

Do‘stlik hissiyotli dunyo predmetlariga ishora qiluvchi, abstrakt tushuncha bo‘lib, do‘stlik munosabatlari o‘zbek va ingliz matnlarida subyektlar orqali taqdim etiladi va do‘st / friend leksemalari yangi konseptlar hosil bo‘lishiga yordam beradi. Masalan, *friendship* va *do‘stlik* leksemalarining asosini tashkil etgan friend / do‘st so‘zlari ingliz va o‘zbek tillarida o‘zi qo‘shilgan so‘zlarda o‘z ma’nosini saqlagan holda qarama-qarshi jins vakillarini ifodalashga xizmat qiladi: *boyfriend* (yigit do‘st / sevgan yigit), *girlfriend* (qiz do‘st / sevgan qiz). O‘zbek tilida esa jinsiy sheriklikni ifodalash uchun *do‘st* so‘zining sinonimi *o‘rtoq* qo‘llaniladi: *turmush o‘rtoq*. Turmush o‘rtoq leksemasida jins kategoriyasi mavjud emas va u er va xotonga nisbatan bir xil mazmunda qo‘llaniladi, ya’ni *juft*, *do‘st*, *sharik* ma’nosini ifodalaydi.

Har ikkala tilda ham *do‘stlik* va *friendship* konseptlari subyektga xos xususiyatlar bilan jonlantirilishi kuzatiladi: *tug‘iladi – be born*, *o‘sadi – grow*, *rivojlanadi – develop*, *o‘ladi – die*: “Yoshlikda tug‘ilgan do‘stlik **ajralmas** va lazzatlidir, u ham hech qachon **o‘lmaydi**” [Abdurazzoqova. Tafakkur gulshani: 283], “*Then if my friendships **break and bend**, there’s no need to cry*” [Henry. 100 Selected stories: 41].

O‘zbek badiiy matnlarida do‘stlikni *shirin*, *lazzatli* substansiyalarida ifodalovchi ko‘pgina referensiyalar mavjud: “*Oqsa ham ming turli meva nozu-ne’mat sharbati, foydada afzaldir undan do‘tlarning suhbati; Do‘stlikning lazzatini bilmagan – yashamagan hisobida*” [Matlabbek. Hikmatlar guldastasi: 63].

Ingliz adabiyotida do‘stlikni g‘azabli va ehtirosli damlarda ham saqlashni qarama-qarshi misollar dalilida ko‘rishimiz mumkin: “*There’s the silence of a great hatred, And the silence of an great love, And the silence of a deep peace of mind, And the silence of an embittered friendship*” [Edgar Lee. Silence]. Unga ko‘ra kuchli nafrat va muhabbatda, chuqur xotirjamlik va do‘stlikning qahrli damlarida sukunat hukmronligini ifodalovchi mental ma’no anglashilmoqda.

Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida *friendship* / do‘stlik konseptlari fizik va kimyoviy parametrlarga ham qiyoslanadi: “*Friendship is the only **trustworthy fabric** of the affections. ... Friendship is **warmth** in cold, **firm ground** in a bog*” [Henry. 100 Selected stories: 42]. “*Quyosh havoni isitsa, do‘stlik qalbni isitadi*.”

*Daraxt po'sti bilan, odam do'sti bilan ko'rkam*" [Shomaqsudov. Hikmatnoma: 86].

Do'stlik munosabatlarining inson hayotidagi ahamiyatini ingliz va o'zbek badiiy asarlaridan keltirilgan parchalar orqali tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi: Ingliz millatida do'stlar bir-birlari bilan ishonchli tarzda o'z fikrlarini, tanqidiy yondashuvlarini erkin ochiq muloqotda bayon etadilar: *You make me laugh, Charlotte; but it is not sound* [Austin. *Pride and Prejudice*: 28]. O'zbek xalqidagi do'stlar o'rtasidagi munosabatlarda samimiyat, sharm-hayo, uyalchanlikni shuningdek do'stni ranjitib qo'yishdan biroz xatotir va ehtiyotkorlikni, kuzatishimiz mumkin: *Endiyoq kirib kelsa kerak. Xafa bo'lmanga?* [Cho'lpon. *Kecha va Kunduz*: 9]. O'zbeklarda do'stlarning mehmondo'stlik, sahiylik, vafo kabi xususiyatlariga e'tiborni qaratiladi: *Hammaligini etdim. Bitta sila qoluvdila* [Hamdam. *Muvozanat*: 86], inglizlarda xushmuomalik, hissiy, intellektual jihatdan yaqinlik, tanlash huquqiga bo'lgan hurmat kabi xususiyatlariga e'tibor qaratiladi: *No, I've met someone. He's called Max* [Hancock. *Just good friends*: 12].

Do'stlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, ruhiy holati ingliz badiiy matnlarida realik va aniqlikka asoslangan holda eksplisit tarzda ko'pincha qahramonlar tilidan bayon qilinadi: *"Except in the sense of enriching my life, Bobbi didn't help me write the poetry. As far as I knew she had never written creatively at all. She liked to perform dramatic monologues and sing anti-war ballads. Onstage she was the superior performer and I often glanced at her anxiously to remind myself what to do"* [Rooney. *Conversations with Friends*: 12]. O'zbek badiiy matnlarida mazkur holatni jonlantirishda turli stilistik vositalar, o'xshatish etalonlariga boy tasavvurga tayaniladi: *"Ko'ngil, orzu, sevgi, sevinch... bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o'rab, uni aylantirib, uni quchadi! Zebining yuzlaridagi – oyday tiniq va quyoshday yorug' bu holat moddiy haqiqatlar qadar ochiq ko'rinardi"* [Cho'lpon. *Kecha va Kunduz*: 9].

Ingliz jamiyatida do'stlarning o'zaro munosabatga kirishishi *hello*, *hi* salomlashish iboralaridan boshlanadi: *"Hello," Stephany said. "Hi, Stephany, it's Carlo." "Hello Carlo!" Max watched Stephany. She looked very happy. "How lovely to hear your voice!"* [Hancock. *Just good friends*: 12] *she said*. Salomlashish inglizlarda xushmuomalalik ko'rsatkichi hisoblanadi va tinglovchining ijobiy qiyofasini oshiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. O'zbek millatida salomlashish hurmat ko'rsatkichi hisoblanadi va u, asosan, yoshi katta insonlar, begonalariga nisbatan ishlatiladi, do'stlarning suhbatga kirishishi ijtimoiy muzokara sifatida hol-ahvolni so'rovchi iboralar orqali boshlanadi: – *Allo, Marfua, qalaysan? Bormisanla? Ertalabdan beri telefon qilaman, omiysila?* [Hamdam. *Muvozanat*: 86]. Ingliz va o'zbek badiiy asarlarida do'stlik konseptining lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin.

## Do‘stlik konseptining lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari

Asar	Konsept xususiyati	Lingvomadaniy jihat	Pragmatik jihat
<b>A.Cho‘lpon. Kecha va kunduz</b>	Samimiyat, sharm-hayo, yaqinlik	O‘zaro hurmat, uyalchanlik, mehr-muruvvat	Ehtiyotkorlik, obrazlilik, ranjitib qo‘yishdan xavotirlanish
<b>J.Ostin. Pride and prejudice</b>	Ishonch, erkinlik, o‘zgaruvchanlik	Qarama-qarshi fikrlarni hurmat qilish, tanqidiy yondashuv	Hazil-mutoyiba, ochiq muloqot
<b>U.Hamd. Muvozanat</b>	Vafo, mehmondo‘stlik	Sahiylik, e‘tibor	Muhokama, taklif qilish
<b>S.Runey. Conversation with friends</b>	Ehtiyoj, raqobat, qadr-qimmat	Tanlash huquqini hurmat qilish, hissiy, intellektual boylik	Informativlik, qisqalik, lo‘ndalik
<b>P.Henkok. Just good friends</b>	Xushmuomalalik, yaqinlik	Do‘stlikning hissiy jihatlari	Ekspressiv aktlar, realistik muloqot,

Badiiy matnlarda jamiyatning ijtimoiy jarayonlarga bo‘lgan munosabati, insonlarning bir-birlariga, insoniy tushunchalarga bo‘lgan qarashlarni o‘z ichiga olgan mazmun ifodalanadi. Ularni lingvomadaniy va pragmatik chog‘ishtirib ko‘rish, qiyosan tadqiq etish millatlar madaniy belgisining umumiy va farqli jihatlarni yoritib berishga xizmat qiladi.

## XULOSA

1. Til hodisalarining semantik, stilistik, pragmatik, kulturologik, kognitiv xususiyatlari, ularning o‘zaro munosabati va ta‘sirini hisobga olgan holda har tomonlama o‘rganishni nazarda tutuvchi antroposentrik paradigmaning tadqiq obykti sifatida badiiy matn belgilanadi. Badiiy matn o‘zida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning milliy mentallikka xos belgilarini individual-mualliflik yondashuvi asosida ifodalab, badiiy konseptning ifodalovchisi bo‘la olishi dalillandi.

2. Badiiy matnga antroposentrik yondashuvda badiiy diskurs va diskursiv shaxs tadqiqi muhim sanaladi. Muallif va qahramon diskursiv shaxsining umumiy jihatlari tahlil qilinganda, muallif diskursiv shaxsi o‘zida muayyan kommunikativ, madaniy, tarixiy, milliy, ijtimoiy va individual xususiyatlarni namoyon ettiruvchi shaxsiyat sifatida tasvirlanadi. Qahramon diskursiv shaxsi qahramonning ichki dunyosini semantik-stilistik, kommunikativ-pragmatik, kognitiv, madaniy va psixologik xususiyatlar orqali ochib beradi hamda adabiy diskursning elementi sifatida badiiy muloqotlarda namoyon bo‘ladi.

3. Lingvomadaniy konseptning markazini tashkil etuvchi qadriyatlar kishilarning o‘zaro ijtimoiylashuv ehtiyojidan kelib chiqqan bo‘lib, voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatib, inson bilan bog‘liq holda uning shaxsiyatida namoyon bo‘lishi hamda insonlarning bir-biri bilan bo‘lgan munosabatlariga ta’sir etishi aniqlandi.

4. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning milliy, madaniy o‘ziga xosliklari nutqiy akt guruhlarining moddiylashuvida namoyon bo‘ladi. Nutqiy aktlarning J.Syorl tomonidan belgilangan tasnifiga asoslangan holda ingliz va o‘zbek muloqot etiketida insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ifodalanishining illokutiv maqsadiga ko‘ra o‘xshashlik va farqli jihatlari belgilanadi.

5. Badiiy kommunikatsiya xususiyatiga ega badiiy asarda muallif va kitobxonning xayoliy muloqoti muhrlanadi. Mazkur muloqotni to‘g‘ri anglash uchun badiiy asarni g‘oyaviy badiiy jihatdan tahlil qilishga tayyorlovchi asar syujeti, kompozitsiyasi, badiiy tili va obraz yaratish yo‘llarini tushunish muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarlar qiyosiy o‘rganilganda milliy adabiyotlarning o‘ziga xos xususiyatlari, milliylik orqali namoyon bo‘ladigan umumiy baynalminal mazmuni ifodalanadi.

6. O‘zbek va ingliz badiiy asarlari o‘zaro qiyoslanganda, ulardagi mazmun mohiyat bilan birgalikda insonlar qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan milliy mentalitetga xos bo‘lgan an’analar, o‘sha davr insonlari, ular o‘rtasidagi munosabatlar, odob-axloq, tarixiy voqealar, urf-odat va marosimlarga bo‘lgan munosabatlarning farqli tomonlari namoyon bo‘ladi

7. Tog‘a/amaki va jiyan o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlari, ota-ona va turmush yoshidagi qizlar o‘rtasidagi munosabatlar, ingliz va o‘zbek millatining to‘y marosimlariga bo‘lgan munosabatlarini tahlil qilish orqali millatlarga xos pragmatik va lingvokulturologik o‘ziga xosliklar aniqlandi. Ingliz badiiy diskurlariga qaraganda o‘zbek badiiy diskurslarida pragmatik intensiya ko‘proq bilvosita nutq orqali implisit tarzda ifodalanishi kuzatildi.

8. “Oila” va “family” konseptlarini o‘zbek va ingliz tillarining lisoniy sathida tadqiq etish tillardagi qarindoshlik atamalarida ba’zi nomuvofiqliklarni aniqlashga imkon berdi. Badiiy asarlardan keltirilgan parchalar orqali qiyoslanayotgan tillarda xalqlarga xos oilaviy munosabatlardagi milliy mentalitet, turmush tarzi, o‘zaro munosabat madaniyati, ijtimoiy xulq-atvor normalari, oilaviy an’analari va urf-odatlaridagi farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, badiiy asarni taqdim etishda, qahramonlar ruhiyatini ochib berishda yozuvchilarning o‘ziga xos uslublari farqlandi: o‘zbek yozuvchilari nutqida hikoya qilib berish unsurini olg‘a suruvchi monologik nutq, ingliz yozuvchilari nutqida esa drammatik unsur yetakchilik qiluvchi dialogik nutq yetakchilik qilishi kuzatildi.

9. Do‘stlik konsepti ingliz va o‘zbek lisoniy madaniyatida subyektlar orqali taqdim etiladi, subyektga xos xususiyatlar bilan jonlantiriladi, fizik va kimyoviy parametrlarga qiyoslanadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi, o‘z millatiga mansub lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarni, milliy realiyalarni o‘zida namoyon etgan do‘stlik haqidagi ayrim paremiologik birliklar ko‘rib chiqildi va ularning tuzilishi, semantik, pragmatik va stilistik jihatdan bir-biridan farqli jihatlari

aniqlandi, ularning bir-biriga sinonimik yoki antonimik munosabatlari mutlaq bo'lmagan nisbatda belgilandi.

10. O'zbek xalqida do'stlik munosabatlari o'zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyligi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan ijtimoiy-axloqiy tushuncha sifatida ulug'lanishi, ularning har doim do'stlarni ko'paytirish va asrashga intilishi, ingliz xalqiga xos do'stlik munosabatlarida o'zaro ishonch, hayrat, hurmat va hissiyot talab qilinishi, sadoqat tuyg'usi qadrlanishi va hamisha do'stlarga xushmuomala bo'lish g'oyasi ilgari surilishi kuzatiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САЙИТКУЛОВА ЗИЛОЛА ХУСНИДДИН КИЗИ**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ  
АНАЛИЗ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ В  
АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ  
ПРОИЗВЕДЕНИЯХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан рег. № В2022.1.PhD/Fil2291.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Насруллаева нафиса Зафаровна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:** **Шамахмудова Азиза Фуркатовна**  
доктор филологических наук (DSc), доцент

**Саидов Хайрулла Шавкатович**  
доктор философии по филологическим наукам (PhD),  
доцент

**Ведущая организация:** **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 14 » мая 2025 года в 12<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина. 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 61858). Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан « 29 » апреля 2025 года.  
(Протокол реестра рассылки за № 13 от « 29 » апреля 2025 года)



**Т.А. Бушуй**  
Заместитель председателя научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

**У.У. Кулдошов**  
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

**Д.А. Киселёв**  
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом литературоведении одним из актуальных вопросов является изучение взаимоотношений между людьми, выявление аспектов их лингвокультурологической и прагматической сущности, а также установление изоморфных и алломорфных характеристик, присущих народам, путем изучения их в сравнительном аспекте. И в этом отношении неопределима роль произведений искусства, отражающих национальную культурную картину мира. В частности, художественные произведения не только художественно изображают жизнь и быт человека в конкретном языковом обществе в определенный исторический период, но и отражают условия жизни, прошлое, языковую культуру и национальный менталитет народа, а также взаимоотношения между людьми, процессы социализации, выражая при этом богатство языка, образ мышления народа. В настоящее время все более интенсивное время изучение человеческих взаимоотношений в сравнительном аспекте имеет важное значение для воспитания совершенного поколения, смело смотрящего в будущее, полного изучения межкультурных различий, установления прочных дипломатических отношений с зарубежными странами.

В ведущих научно-исследовательских центрах мира особое внимание уделяется изучению художественной идеи произведения, рассмотрению вопросов о смысле человеческой жизни, характере взаимоотношений и устремлений человека в соответствии с его ценностями, в частности, духовными. Прагматические задачи языковых средств, используемых в художественном произведении, анализ языковых средств, выбранных для выражения взаимоотношений между людьми посредством различных смысловых выражений и освещения английской и узбекской языковой культуры, общечеловеческих, научно-образовательных и духовно-культурных ценностей, являются одним из важнейших вопросов современного литературоведения.

С целью интеграции нашей страны в мировое сообщество усиливается внимание к проведению важных реформ в изучении, переводе образцов национальной и зарубежной литературы. Кроме того, в новом Узбекистане изучение художественных произведений, несомненно, расширяет человеческое сознание, знакомит читателя с определенным историческим периодом, образом жизни конкретного языкового сообщества, человеческими ценностями и национальными стереотипами. Поэтому формируются и новые научные подходы и взгляды на изучение образцов художественной литературы. Это ставит перед литературоведами и лингвистами такие важные задачи, как изучение произведений искусства на основе достижений новых направлений в современном литературоведении, в связи с социально-культурными отношениями периода, их перевод на различные языки, широкое распространение произведений, прославляющих культуру узбекского народа среди народов мира. В частности, «литература

отражает сердце народа, его духовность. В сегодняшнее сложное время необходимо использовать чувственную силу литературы, чтобы найти путь к сердцам людей, вдохновить их на благородные цели”<sup>20</sup>. Поэтому, углубленно изучая художественные произведения, являющиеся духовными шедеврами, анализируя их сквозь призму новых направлений в литературоведении, раскрывая самобытность английских и узбекских художественных произведений, становится необходимым выявление лингвокультурных особенностей языка в изображении взаимоотношений между людьми.

Настоящее исследование вносит определенный вклад в реализацию задач, обозначенных Указами Президента Республики Узбекистан: УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», а также Постановлениями Президента Республики Узбекистан: ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», ПП-5117 от 19 мая 2019 г. «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», и другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено согласно приоритетному направлению развития науки и технологий республики I. «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Лингвокультурные и прагматические особенности художественного текста, проблемы проявления языковых и экстралингвистических факторов, формирующих идейное содержание художественных произведений, исследовались отечественными и зарубежными учеными. В частности, исследования по данной проблематике проводили зарубежные ученые D.Holland, N.Quinn, E.Sapir, P.Verdonk, T.A.Van Dijk<sup>21</sup>; российские ученые Н.Д.Артюнова, Г.Г.Молчанова,

---

